

## XARAJATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING TURKUMLANISHI

**Islomova Madina**

**To'ychiyeva Madinabonu**

*Guliston davlat universiteti Menejment  
yo`nalishi talabalari*

**Zaripov Azamat**

*Guliston davlat universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Mazkur tezisda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida xarajatlarning mohiyati, iqtisodiy ahamiyati va ularning turkumlanishi yoritib berilgan. Xarajatlarni to'g'ri tasniflash korxonalar moliyaviy natijalariga va boshqaruv qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.*

*Kalit so'zlar: xarajatlar, moliyaviy natija, ishlab chiqarish xarajatlari, umumxo'jalik xarajatlari.*

### KIRISH

Ishlab chiqarish harajatlari — korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o'z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xomashyo, yoqilg'i, har xil materiallarni, mehnat bozorida ish kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxining tashkil qiladi. Ishlab chiqarish xarajatlarni o'rganishga iqtisodchilar turlicha yondoshadilar. Jumladan, harajatlarning qiymat nazariyasiga ko'ra, Ishlab chiqarish xarajatlar quyidagi turlarga bo'linadi: doimiy harajatlar — korxonalar to'lov majburiyatlari, soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmati harajatlari, boshqaruv xodimlari maoshi va boshqalar.

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan xarajatlar ishlab chiqarish jarayonida resurslarning iqtisodiy qiymatining ishlatilishi bo'lib, ular mahsulot yoki xizmatning yakuniy narxiga ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlarni to'g'ri tahlil qilish, boshqarish va nazorat qilish korxonalar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

### Xarajatlar turkumlanishi (tasnifi):

<b>1. Ishlab chiqarish jarayoniga ko'ra:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>- Ishlab chiqarish xarajatlari</li><li>- Noishlab chiqarish xarajatlari (ma'muriy, marketing xarajatlari)</li></ul>	<b>2. Moddiy tarkibiga ko'ra:</b> <ul style="list-style-type: none"><li>- To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar (xom ashyo, ish haqi)</li><li>- Bilvosita xarajatlar (umumiy ishlab chiqarish xarajatlari)</li></ul>
--	--

### 3. O‘zgaruvchanlik darajasiga ko‘ra:

- O‘zgaruvchi xarajatlar (xom ashyo, energiya)
- Doimiy xarajatlar (ijara, maosh)

### 4. Buxgalteriya va moliyaviy nuqtayi nazardan:

- Buxgalteriyadagi xarajatlar (amaldagi sarf)
- Moliyaviy xarajatlar (foiz to‘lovlari, penalti)

Masalan, xomashyo sotib olish, ishlab chiqarish ishchilarining to‘lovlari o‘zgaruvchi xarajatlardir. Ularni boshqarish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Ushbu xarajat turlarini to‘g‘ri ajratish korxonaning rentabellik tahlilida va narx strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni boshqa turkumlash mezonlari Xarajatlar boshqa mezonlarga ko‘ra ham turli guruhlariga ajratiladi. Masalan, faoliyat xarajatlari va investitsiyaviy xarajatlar, yoki nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlar. Faoliyat xarajatlari bilan bog‘liq xarajatlar ishlab chiqarish jarayonida doimiy yuzaga keladi va ular orqali mahsulot narxi hisoblanadi. Investitsiyaviy xarajatlar esa korxonaning uzoq muddatli rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan aktivlarga yo‘naltiriladi. Nazorat qilinadigan xarajatlar faoliyat boshqaruvchilari tomonidan boshqarilishi mumkin bo‘lgan xarajatlardir, nazorat qilinmaydiganlar esa tashqi sharoitlarga bog‘liq xarajatlar hisoblanadi.

Korxonada samaradorligini oshirish uchun xarajatlar tahlili va boshqaruvi muhimdir. Xarajatlarni to‘g‘ri tahlil qilish orqali tejamkorlikka erishish, isrofnii kamaytirish va raqobatbardosh mahsulot yaratish mumkin.

Boshqaruv hisoboti va buxgalteriya tizimlari xarajatlarni monitoring qilish, ularni turkumlash va loyihalash imkonini beradi. Xarajatlarning har bir turi bo‘yicha hisobotlar korxonada rahbariyatiga qaror qabul qilishda yordam beradi.

Boshqaruv jarayonida xarajatlarni tekshirish va qayta ko‘rib chiqish, shuningdek, xarajatlarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish xarajatlarni optimallashtirishning samarali usulidir.

### XULOSA

Xarajatlar — bu xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan daromad olish yoki faoliyatni ta‘minlash maqsadida sarflangan iqtisodiy resurslar (pul mablag‘lari, materiallar, mehnat va boshqalar) qiymati hisoblanadi. Iqtisodiyot talabalari va mutaxassislari uchun mo‘ljallangan mazkur hujjatda xarajatlarning asosiy turlarini aniqlash, ularning har birining iqtisodiy ahamiyatini tushunish va xarajatlarni boshqarish nazariyasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom-ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg‘i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, foiz to‘lovlari va boshqa

xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxining tashkil qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Qonuni, 2021 yilgi tahriri.
2. "Moliyaviy hisobotlar va buxgalteriya hisoboti" – R.Abdullayev, Toshkent, 2020.
3. Qaynarovich, C. U., Djo‘Rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Ishlab chiqarish soxasida xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 76-81.
4. Qaynarovich, C. U., Djo‘Rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Sanoat ishlab chiqarish vamahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash usullari. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, 2(1-1), 108-112.
5. Djurayevich, Z. A., Qizi, U. S. A., Qizi, M. G. O. T., O‘G‘Li, R. B. A., & O‘G, J. R. X. A. (2024). Qishloq xo‘jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyatidan foydalanish samaradorligi. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(1-2), 39-46.
6. Муродов, М. М., Насуллаев, Х. А., Юсупова, Ф. Н., Халилов, Ш. У., Арабова, З. А., Тўраев, З. Б., ... & Муродов, А. М. (2023). Пахта тозалаш корхоналари чиқиндилари асосида целлюлоза синтез жараёни тахлиллари. *Gospodarka i Innowacje.*, 35, 314-322.
7. Aleksandrovna, T. A., Stanislavovna, S. L., & Abdusamiyevna, V. A. (2021). Gender stereotypes in semantics of Spanish proverbs. *Linguistics and Culture Review*, 1336-1345.
8. Ткачёва, А. А. (2020). Вербализация концептуальной метафоры жизни и смерти в испанской поэзии. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века* (pp. 158-161).
9. Maxmurovna, S. B. (2025). A linguoculturological analysis of italian proverbs related to the concepts of good and evil. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 3(4), 75-78.
10. Minavvarxon, U., & Muhammadaminovich, M. A. (2024). Paremiologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o‘rni, maqsadi, vazifalari. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 3(26), 165-168.
11. Sadykova, B. (2016). Emotional words and tropes in the roman of italian author N. Ammaniti "I don't fear". In *science and practice: a new level of integration in the modern world* (pp. 123-125).
12. Djalilova, S., & Khamidova, F. The Role of Color in Shaping National Worldviews: A Comparison of Uzbek and Spanish Languages.